“Buyuk Ipak yo’lining umumiy merosi” qo’shma ko’chma va virtual ko’rgazmani ishlab chiqish bo’yicha ishchi guruh yig’ilishi bo’lib o’tdi

2022-yilning 3-4-mart kunlari O‘zR FA O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida Buyuk Ipak Yo‘lining umumiy merosi qo‘shma ko‘rgazmasini ishlab chiqish bo‘yicha ishchi guruhning IV uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.






Jannat Ismailova
Director
State Museum of History of Uzbekistan
Akhliddin Ibodullozoda
Director
National Museum of Tajikistan


Jannat Ismailova
Director
State Museum of History of Uzbekistan
Abay Satubaldin
Deputy Director
National Museum of Kazakhstan


Jannat Ismailova
Director
State Museum of History of Uzbekistan
Jebrael Nokandeh
Director
National Museum of Iran



Qo‘shma ko‘rgazma Yevropa Ittifoqi va YuNESKOning “Afg‘oniston, Markaziy Osiyo va Erondagi Ipak yo‘li merosi yo‘laklari – Yevropa madaniy meros yilining xalqaro aspektlari” nomli loyihasi doirasida tashkil etildi.

YuNESKO va Yevropa Ittifoqi hamkorligida tashkil etilgan ushbu anjumanda Qozog’iston, Qirg’iziston va Eron Islom Respublikasi Milliy muzeylaridan tashrif buyurgan san’atshunos va tarixchi olimlar, xalqaro ekspertlar ishtirok etishdi.

Umumiy madaniy meros ko‘rgazma loyihasining maqsadi – moddiy va nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish salohiyatini oshirish; Ipak yo‘li bo‘ylab umumiy madaniy meros haqidagi axborotlarni oshirish va targ‘ib qilish; merosdan barqaror rivojlanish uchun asos sifatida foydalanish, shu jumladan madaniy meros ob’ektlari asosida turizmni rivojlantirish va Ipak yo‘li umumiy merosini Sharq va G‘arb o‘rtasidagi ko‘prik sifatida umumiy tushunishni rag‘batlantirishga qaratilgan.